



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUI USTIDAN NAZORAT
QILISH INSPEKSIYASI BOSHLIG'INING
BUYRUG'I**

2023-yil «3» may

S-5-23

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorini
ijroga qabul qilish haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldaggi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zagroinspeksi"ya to'g'risidagi nizomning 17-bandi "j" kichik bandiga asosan

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 170-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha "O'zagroinspeksiya"ning nazorat rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Raximov)lar ushbu qarorda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlashda mas'ul etib belgilansin.
4. Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov) hududiy boshqarmalari rahbarlari bilan birgalikda mazkur qaror mazmun-mohiyatini xodimlarga tushuntirsin hamda qaror bilan tasdiqlangan Reglamentlar asosida ishni tashkillashtirsin.
5. Boshliq matbuot kotibi (X.Shadiyeva) qaror mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari imkoniyatidan foydalanib, jamoatchilikka yetkazish choralarini ko'rsin.
6. Axborot tahlil, ijro intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (J.Mirsaidov) mazkur buyruqni Inspeksianing hududiy boshqarmalariga yetkazsin.
7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Boshliq

A.Vaxabov

"O'zagroinspeksiya" boshlig'ining
2023-yil "3" maydagi 5-5-23-sonli buyrug'iga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 170-sonli qarori ijrosini,
ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyatini xodimlar hamda keng aholi o'rtaida tushuntirilishini
ta'minlash bo'yicha "O'zagroinspeksiya"ning
NAZORAT REJASI**

T/r	Tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Bajarish muddati
1	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 170-sonli qarorini ijro uchun qabul qilish.	<ol style="list-style-type: none"> Qarorni buyruq bilan ijroga qabul qilish. Qarorni elektron shaklda barcha takribiy bo'linmalarga yetkazish. Qarorda belgilangan talablar va qoidalarning bajarilishini alohida nazoratga olish. 	2023-yil 3-may	Boshliqning birinchi o'rribosari (M.Rasulov), Axborot tahlil, ijo intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (J.Mirsaidov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
2	Inspeksiya tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi: qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini davlat ro'yxatidan va qayta ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha; qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha; qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini hisobdan chiqarish bo'yicha;	<ol style="list-style-type: none"> Idoraviy va ichki hujjatlarni mazkur Reglamentlar talablariga muvofiqlashtirish. Davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xodimlarni mazkur reglamentlar asosida o'qitishni tashkil etish. 	2023-yil 5-may	Boshliqning birinchi o'rribosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari

	<p>qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalari ro'yxatda turganligi to'g'risida ma'lumotnomha berish bo'yicha;</p> <p>qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini majburiy yillik texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha;</p> <p>traktorchi-mashinistlarni tayyorlash va qayta tayyorlash yo'nalishitagi ta'lim tashkilotlarini hisobga olish hamda traktorchi-mashinist guvohnomasini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlar talablariga rioya etish.</p>			
3	<p>O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rnlarda – YaIDXP)da davlat xizmatlarini joriy qilish bo'yicha texnik hujjatni ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda kelishish uchun Raqamli texnologiyalar vazirligi va Adliya vazirligiga kiritish;</p> <p>Raqamli texnologiyalar vazirligi va Adliya vazirligi bilan birgalikda davlat xizmatlarini ko'rsatishda ishtirok etuvchi tuzilmalarining YaIDXPga integratsiya qilinishini ta'minlash;</p> <p>shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatishning har bir bosqichida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilishini YaIDXPda kuzatib borish choralarini ko'rish.</p>	<p>1. YaIDXP da davlat xizmatlarini joriy qilish va hizmatlarni kuzatib borish bo'yicha texnik yo'riqnomani ishlab chiqish.</p> <p>2. Yo'riqnomani belgilangan tartibda kelishish uchun Raqamli texnologiyalar vazirligi va Adliya vazirligiga kiritish.</p> <p>3. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga ularish hamda davlat xizmatlari ko'rsatilishini kuzatib borish.</p> <p>4. Qaror talablariga rioya etilishini YaIDXP orqali doimiy nazorat qilib borish.</p>	<p>2023-yil 26-iyun</p>	<p>Boshliqning birinchi o'rnbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Raximov), Moliya-iqtisod bo'limi (M.Kashimov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari</p>
4	Davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun to'lov va yig'imlarni to'lov tizimlari hamda yagona billing tizimi orqali elektron shaklda to'lash imkoniyatini yaratish.	<p>1. Yagona billing tizimiga ularish bo'yicha texnik yo'riqnomani ishlab chiqish.</p> <p>2. Yo'riqnomani belgilangan tartibda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishish</p> <p>3. Yagona billing tizimiga ularish va uni ishga tushirish</p>	<p>2023-yil 1-iyul</p>	<p>Boshliqning birinchi o'rnbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov),</p>

				Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (B.Raximov), Moliya-iqtisod bo‘limi (M.Xashimov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
5	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan “Texnikalar texnik ko‘rigi” avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Teknik ko‘rikdan o‘tgan texnikalar hisobini yuritish maqsadida “Texnikalar texnik ko‘rigi” avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish bo‘yicha texnik yo‘riqnomma ishlab chiqish. 2. Yo‘riqnomani belgilangan tartibda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishish. 3. Axborot tizimni ishga tushirish 	2023-yil 15-iyun	Boshliqning birinchi o‘rinbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (B.Raximov), Moliya-iqtisod bo‘limi (M.Xashimov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
6	Jismoniy va yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini harakatlanuvchi (maxsus avtotransport) mobil texnik nazorat liniyalaridan foydalangan holda majburiy yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish amaliyotini joriy etish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavjud 28 ta mobil texnik nazorat liniyalarini xatlovdan o‘tkazish. 2. Ularni ishlatish uchun inspektorlar bilan o‘quv seminarlari tashkil etish. 3. Harakatlanuvchi (maxsus avtotransport) mobil texnik nazorat liniyalaridan foydalangan holda majburiy yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini tashkil etish. 4. Mavjud 28 ta mobil texnik nazorat liniyalarini olib yurish uchun yetishmaydigan 14 ta avtomobil bilan ta’minlash bo‘yicha Inspeksiya rahbariga taklif kiritish. 	2023-yil 1-may	Boshliqning birinchi o‘rinbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Moliya-iqtisod bo‘limi (M.Xashimov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari

		5. Bosqichma-bosqich inspektorlarni harakatlanuvchi (maxsus avtotransport) mobil texnik nazorat liniyalari bilan ta'minlash bo'yicha Inspeksiya rahbariga taklif kiritib borish.	Har chorakda	
7	Yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga 2023-yil 1-sentabrdan boshlab jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini yuridik shaxslar tomonidan texnik ko'rikdan o'tkazish amaliyotini joriy etish.	<p>1. Jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini yuridik shaxslar tomonidan texnik ko'rikdan o'tkazish amaliyotini joriy etish.</p> <p>2. Tadbirkorlik subyektlari bilan davra suhbatlari tashkil etish.</p> <p>3. Yuridik shaxsning murojaatiga asosan, qarorning 5-ilovasi talablari asosida jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo'lgan texnikalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini hisobga olish</p>	2023-yil 1-sentabr	Boshliqning birinchi o'rinnbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
8	2023-yil 1-oktabrga qadar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini majburiy yillik texnik ko'rikdan o'tkazish faoliyatini amalga oshiradigan tadbirkorlik subyektlariga axborot xavfsizligi talablarini inobatga olgan holda "Texnikalar texnik ko'rigi" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kirish imkoniyatini yaratish.	<p>1. Tadbirkorlik subyektlariga "Texnikalar texnik ko'rigi" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kirish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish.</p> <p>2. Texnik ko'rikdan o'tkazish huquqiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bilan tizimda ishlash bo'yicha davra suhbatlari tashkil etish.</p> <p>3. Texnik ko'rikdan o'tkazish huquqiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga "Texnikalar texnik ko'rigi" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kirish imkoniyatini yaratish.</p>	2023-yil 15-sentabr	Boshliqning birinchi o'rinnbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Raximov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
9	O'zagroinspeksiya tomonidan quyidagi axborot tizimlari ishga tushirilganligi ma'lumot uchun qabul qilish: davlat ro'yxatiga olingan qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarining	1. Qaror talablaridan kelib chiqib, "Texnikalar hisobi" va "Traktorchi-mashinist" avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2023-yil 10-may	Boshliqning birinchi o'rinnbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi

	<p>elektron hisobini yuritish bo'yicha "Texnikalar hisobi" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;</p> <p>traktorchi-mashinistlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha hisobga olingan ta'lim tashkilotlari va traktorchi-mashinist guvohnomasiga ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati aks ettirilgan "Traktorchi-mashinist" avtomatlashtirilgan axborot tizimi.</p>	<p>2. Axborot tizimlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, uni ishga tushirish</p>		(A.Mirzaaxmedov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Raximov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
10	<p>Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni elektron shaklda olish va almashish maqsadida "Texnikalar hisobi", "Traktorchi-mashinist" va "Texnikalar texnik ko'rige" avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan – notarius tomonidan tasdiqlangan shartnomalar (oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya va boshqalar) hamda taqiqqa qo'yish va taqiqdan yechishga oid hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi bilan – qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarining bojxona rasmiylashtiruvidan o'tganligi (bojxona yuk deklaratsiyasi) to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi bilan – yuridik shaxslarning STIR raqamlari, to'liq nomi, joylashgan joyi (pochta manzili) hamda taqiq qo'yish va taqiqdan yechish</p>	<p>1. Axborot tizimlarini integratsiya qilish bo'yicha texnik yo'riqnomalar ishlab chiqish.</p> <p>2. Yo'riqnomalar tegishli ma'lumot olinadigan idora bilan kelishish.</p> <p>3. Integratsiya qilish va uni sinovdan o'tkazish.</p> <p>4. Sinov yakunlari bo'yicha integratsiya dasturiga zarur o'zgartirishlar kiritish.</p> <p>5. Integratsiyalarni to'liq ishga tushirish.</p>	<p>2023-yil 15-iyul</p>	Boshliqning birinchi o'rinosi (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Raximov), Moliya-iqtisod bo'limi (M.Xashimov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari

	<p>haqidagi hujjatlarga oid ma'lumotlar;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan – to'lovlarni real vaqt rejimida ko'rish imkonini beruvchi hisob-kitoblarning kliring tizimi orqali amalga oshirilishiga oid ma'lumotlar;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi bilan – texnikalarni davlat ro'yxatiga olish va ro'yxatdan chiqarishga oid ma'lumotlar;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan – texnikalarni davlat ro'yxatiga olish, texnik ko'rikdan o'tkazish va ro'yxatdan chiqarishga oid ma'lumotlar;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali bilan – yuridik shaxslarning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma hamda jismoniy shaxslarning JShIR raqami, familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, yashash manzili (pasport yoki ID-karta) haqidagi ma'lumotlar.</p>		
11	<p>2023-yil 1-avgustdan boshlab qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini ishlab chiqaruvchi yoki maxsus savdo tashkilotlarida xaridorlarga sotilgan yangi texnikalar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan hujjatlar bilan birga O'zagroinspeksiyada ro'yxatdan o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan "Hisob-ma'lumotnoma" berish amaliyoti joriy etish.</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining "Hisob-ma'lumotnoma" berish amaliyotini o'rganish. 2. Texnikalarni ishlab chiqaruvchi va maxsus savdo tashkilotlari bilan "Hisob-ma'lumotnoma"si berish amaliyotini joriy etish bo'yicha davra suhbatlari o'tkazish. 3. "Hisob-ma'lumotnoma"si blankasining namunaviy nusxasini ishlab chiqish. 	<p>2023-yil 15-iyul</p> <p>Boshliqning birinchi o'rinnbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Rahbar maslahatchisi (G.Irgasheva), Moliya-iqtisod bo'limi</p>

	O'zagroinspeksiya qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlarni hamda maxsus savdo obyektlarini himoyalanganlik darajasiga ega bo'lgan "Hisob-ma'lumotnoma" blankalari bilan bepul ta'minlaydi va ularning sarflanishini nazorat qilish.	4. "Hisob ma'lumotnomasi"ni tayyorlash, uni berish va sarflanishini nazorat qilish tartibini belgilovchi hujjat ishlab chiqish. 5. Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini ishlab chiqaruvchi yoki maxsus savdo tashkilotlarida xaridorlarga sotilgan yangi texnikalar uchun O'zagroinspeksiyada ro'yxatda o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan "Hisob-ma'lumotnoma" berish amaliyotini joriy etish.		(M.Xashimov), Yuridik ta'minlash bo'yicha bosh mutaxassis (Sh.Bo'ronov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
12	O'zagroinspeksiyaga mavjud axborot tizimlarini takomillashtirish, yangi axborot tizimlarini yaratish, maxsus blankalar va boshqa hujatlarni tayyorlash, maxsus planshet qurilmalarini va harakatlanuvchi (maxsus avtotransport) mobil texnik nazorat liniyalarini xarid qilish, xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha xarajatlarni qonunchilik hujatlarda belgilangan tartibda Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga ruxsat berish	1. Yangi axborot tizimlarini yaratish va uni takomillashtirish bo'yicha dasturlash kompaniyalari qonunchilik hujatlarda belgilangan tartibda aniqlash. 2. Maxsus blankalar (hisob-ma'lumotnoma, plastik, texnik ko'rik taloni) va davlat raqami belgilari bilan ta'minlash uchun, ularni qonunchilik hujatlarda belgilangan tartibda harid qilish. 3. Tehnika holatini nazorat qilish inspektorlarini bosqichma-bosqich maxsus planshet qurilmalari va harakatlanuvchi mobil texnik nazorat liniyalarini bilan ta'minlash maqsadida, ularni belgilangan tartibda harid qilish. 4. Xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha takliflarni Rahbariyatga kiritib borish	2023-yil 15-iyul Har chorakda Yil yakuni bilan	Boshliqning birinchi o'rinnbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Moliya-iqtisod bo'limi (M.Xashimov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Raximov), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (J.Safarov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari

13	<p>2023-yil 1-sentabrdan boshlab qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalariga texnik ko'rikdan o'tganligi to'g'risida talon berish amaliyoti bekor qilish (xorijiy davlatlarga ishga yuboriladigan texnikalardan tashqari)</p>	<p>1. "Texnikalar texnik ko'rige" axborot tizimiga texnik ko'rik ma'lumotlarini kiritish bo'yicha yo'riqnomani ishlab chiqish.</p> <p>2. Texnik ko'rik ma'lumotlarini axborot tizimiga kiritish funktsiyasini ishga tushirish.</p>	<p>2023-yil 15-avgust</p>	<p>Boshliqning birinchi o'rinosi (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Moliya-iqtisod bo'limi (M.Xashimov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Raximov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari</p>
14	<p>Eski namunadagi texnik pasport, texnik guvohnoma, davlat raqami belgisi va traktorchi-mashinist guvohnomasini 2023-yil 31-avgust majburiy tartibda almashtirish;</p> <p>eski namunadagi texnik pasport, texnik guvohnoma, davlat raqami belgisi va traktorchi-mashinist guvohnomasi 2023-yil 1-sentabrdan boshlab haqiqiy emas deb hisoblash.</p>	<p>1. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari yordamida eski namunadagi texnik pasport, texnik guvohnoma, davlat raqami belgilari va traktorchi-mashinist guvohnomalarini aniqlash.</p> <p>2. Eski namunadagi hujjatlarni yangisiga almashtirish bo'yicha mulk egalarini habardor qilish.</p> <p>3. Ommaviy axborot vositalari orqali eski namunadagi texnik pasport, texnik guvohnoma, davlat raqami belgisi va traktorchi-mashinist guvohnomasi 2023-yil 1-sentabrdan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanishini keng jamoatchilikka yetkazish.</p>	<p>2023-yil 31-avgust</p>	<p>Boshliqning birinchi o'rinosi (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Inspeksiya boshlig'inining matbuot kotibi (X.Shodieva), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari</p>
15	<p>O'zagroinspeksiya manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2023-yil 1-noyabrga qadar qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalari holatini nazorat qiladigan inspektorlarning maxsus kiyimi yoki taniqlik belgilari va ularni kiyib yurish qoidalarini nazarda</p>	<p>1. Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda aloqador vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>2. Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2023-yil 1-sentabr</p>	<p>Boshliqning birinchi o'rinosi (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Rahbar maslahatchisi</p>

	tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		(G.Irgasheva), Moliya-iqtisod bo‘limi (M.Xashimov), Yuridik ta’minlash bo‘yicha bosh mutaxassis (Sh.Bo‘ronov)	
16	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 170-sonli qarori va u bilan tasdiqlangan reglamentlarning matnidagi normalarning mohiyati va ahamiyatini rahbarlar va xodimlarga, shuningdek keng jamoatchilikka tushuntirish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Targ‘ibot tadbirlari rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Qaror va reglamentlarni rasmiy veb-saytlarga joylashtirish. 3. Qaror va reglamentlardagi normalarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga doir materiallar tayyorlash va markaziy hamda mahalliy OAVlarida yoritish uchun yetkazish. 	Yil davomida	Boshliqning birinchi o‘rinbosari (M.Rasulov), Jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo‘limi (X.Shodieva), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
17	Qaror ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida axborot kiritib borish va nazorat qilish.	Tahliliy ma’lumot tayyorlash va Inspeksiya boshlig‘iga kiritib borish.	Har chorakda	Boshliqning birinchi o‘rinbosari (M.Rasulov), Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Axborot tahlil, ijro intizomi va ma’muriy amaliyot boshqarmasi (J.Mirsaidov), Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari